

ZARDO‘ZLIK SAN’ATI

Sadikova Gulbahor Qurol qizi

Jizzax viloyati Jizzax shahar 31-umumiy

o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mustaqil O‘zbekiston jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilgan. G‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash - davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada xalqimiz o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy qadriyatlar va madaniyat sohibiga aylandi. Mazkur metodik tavsiyada zardo‘zlik san’ati, uning kelib chiqish tarixi, usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: zardo‘zlik, san’at, meros, zamindo‘zi, guldo‘zi, chok, shturgardon, qaychi, andoza, gazlama.

KIRISH

Yurtimizning istiqbolga erishishi milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi bilan bir qatorda, xalq hunarmandchiligi va amaliy san’atning naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, badiiy kulolchilik, zardo‘zlik, miniatyura san’ati turlari kabi zardo‘zlik san’atida ham yangi amaliy ijodiy ishlar yaratilishiga hamda taraqqiy etishga keng yo‘l ochib berdi.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlaridan biri zardo‘zlikdir. Zardo‘zlik zar ip bilan naqsh (kashta)

tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi. Zardo‘zlikni bilish uchun asosan quyidagi hunarlarni yaxshi bilishi kerak:

1. Rasm solish va naqsh chizishni;
2. Gul kesishni, ya’ni gulbur bo‘lishni;
3. Kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak;

Zardo‘z quyidagi tartibda ishlaydi. Tikiladigan har bir buyum uchun alohida andoza tayyorlanadi va bichiladi. Axta va Xoka yordamida kartonga naqshi tushiriladi.

Axta, ulgi, nusxa - naqsh yoki rasmni qog'ozga chizib, chiziq yo'llari igna bilan teshilib, tayyorlangan andoza. Naqsh gullarini tuya bo'yin qaychi yordamida kesib olinadi. Bunday ishni gulbur bajaradi. Hozirda kartondan foydalaniladi. Kartonni yuziga sariq bo'z yopishtirilsa, bu holatda karton sinmaydi va bir tekisda chiqadi. Kartondan gul kesish tez va oson, zar bilan tikish qulay hamda sifatli bo'ladi. Gullar kesilib, chambarak tayyor bo'lgach, ya'ni unga bo'zdan qilingan kerish tortiladi. Kerish ustiga tikiladigan buyum gazlamasiga qadab chiqiladi. Gazlama ustidan qirqilgan gul qirqilib ketmasligi uchun ular yirik qaviqlar bilan chatib qo'yiladi. Odatda tayyor ish batamom nihoyasiga yetgandan keyin olib tashlanadi. Zardo'zlik ikki qo'l bilan tikilib, ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim. Tilla rangli zarni qizil, sariq iplar bilan, kumush zar ip bilan tikiladi. Zar ipni to'rt qavat qilib patilaga ya'ni zar ip o'raydigan cho'pga o'raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.

Zardo'zlik ishi quyidagicha olib boriladi: dastlab zar ip bilan asosiy gullar, keyin toftado'ziy yoki simdo'ziy zar ip bilan gulning ismlari tikiladi. Bu iplarni berishimdo'ziy, ipak, sun'iy ipak ip aralashgan zarrin sim kabi nomlar bilan ataladi. Zargarlik ziynatlari, tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar, metall bo'lakcha, bo'rtma naqshlar tikiladi. Gullarning girdini aylantirish bilan baravariga tikilmay qolgan joylarni ham margula, tagalak (jingalak, spiralsimon jingalak nusxa gullar bilan to'ldirib bezatiladi. Erkak va ayollar kiyim - kechaklari, uy-ro'zg'or buyumlari zardo'zlik ishi tugashi bilan korcho'pdan bira to'la olinadi. Ko'ylak kashtalari, poyafzal, do'ppilar, peshonaband, ro'mollar va bosha buyumlar qalinroq bo'lishi uchun teskari tomonidan yelimda bir necha qavat gazlama yoki oz o'yib yelimlanadi va tayyor buyum holatiga keltirib tikiladi. Ma'lumki, xalqimiz asrlar davomida zardo'zlik bilan shug'ullanib kelgan. Bu san'at hunarmandchilikdan to san'at darajasiga

ko'tara olgan va bizgacha boy madaniy meros bo'lib yetib kelgan. Uni avaylab asrash, yanada sayqallash, qayta tiklash, takomillashtirish va kelgusi avlodga yetkazib berish bugungi kun mutaxassislarning kelajak oldidagi burchidir. Mana shu burch

mas'uliyati har bir hunar turining sir-asrorlarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan juda chuqur, mukammal va keng qamrovda o'rganishni hamda tahlil qilishni taqazo etadi. Zardo'zlik san'ati tarixi va amaliy jihatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab san'atshunos olimlar va mutaxassislar shugullanganlar. Jumladan, P.A.Goncharova, S.Bulatov, M.Akromxo'jaeva, R.Akromxo'jaeva G.Pugachenko, L.Rempel, N.Sodiqovalarning zardo'zlik san'atiga oid ilmiy, amaliy ishlari e'tiborga loyiqdir. Mazkur ishlanmada zardo'zlik san'ati tarixi, o'zbek zardo'zligi maktablari va ularning namoyandalari, zardo'zlik san'ati aks etgan badiiy buyumlar, naqsh namunalari, zardo'zlik asboblari, ulardan foydalanish usullari va tikish usullari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

ASOSIY QISM:

Zardo'zlik san'atining kelib chiqish tarixi

Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham mavjud va mashhur bo'lgandir. Hozirgi Eronda esa XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalari anchagina yodgorliklaridan saqlanib qolgandir.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar katta ahamiyatni kasb etgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tikilgandir. Ota-bobosidan meros bo'lgan kashtachilik kasbi bilan shug'ullangan yuzlab qo'li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi qimmatbaho zardo'zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar.

Buxoro zardo'zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz

miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon-qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiyimlarni o'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'z kiyimlarini esa faqatgina badavlat

xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar. XIX va XX asr boshlarida, ya'ni 1785-yildan to 1920- yilgacha Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli bo'lgan zardo'zi kiyimlari hozirgi kunda yodgorlik bo'lib qolgan.

Zardo'zlik zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi hisoblanadi. Zardo'zlik so'zi forsha «zar-tilla», «do'zi-tikmoq» ya'ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq degan ma'noni anglatadi. Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlik vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar ipak va jun ip bilan qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. XVII asrda yashagan Samarqandlik Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan. U matolarga zar ip bilan ajoyib kashtalar tikkan. Biz zardo'zlik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, zardo'zlik buyumlari tarixiy taraqqiyotda muhim vazifalarni bajarganligini ko'ramiz.

Ayniqsa XVIII asr oxirida Buxoro xoni Amir Abdullaxon tomonidan zardo'zlik xususiy ustaxonalari ochishga ruxsat berilishi, boshqa shaharlarga qaraganda Buxoroda zardo'zlik kasbining gullab-yashnashiga sabab bo'lgan. Natijada 25 zardo'zlik ustaxonalari ochilib, ularda ishlaydigan zardo'zlar soni

350 taga yetgan. Zardo'zlik buyumlari, ulardagi naqshlar rang-barang va murakkab bolib, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi zardo'zlar tomonidan asrlar davomida yaratilgan.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TEXNOLOGIYA FANIDAN “ZARDO‘ZLIK SAN’ATI” MAVZUSIDAGI

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy: o'quvchilarga zardo'zlik san'ati haqida tushuncha berish; milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga o'rgatish.

T.K1. Fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalay olish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarning qalbiga milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni singdirish. O'quvchilar o'rtasida do'stona munosabat va o'zaro tenglikka erishish.

TK 4: Atrofdagilar bilan o‘zaro muloqot chog‘ida odob-axloq qoidalariga rioya qilishga o‘rgatish.

c) Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy bajarish malakalarini rivojlantirish.

FK2. O‘rganilgan tushunchalarni o‘quv vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi bilimlar hosil qilish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi va bilimlarni mustahkamlovchi dars Dars metodi: —Klasterl, —Singapurl, —Qizil qutil va —BBBl metodlari Dars jihozi: Darslik, multimedia ilovalari, AKT, slayd va mavzuga oid

ko‘rgazmali qurollar, tarqatmalar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: salomlashish; O‘qituvchi:- Assalomu aleykum

Parvozga shay lochinlarim Mustaqil yurt egalari Alpomishu Barchinlarim.

O‘quvchilar: - Vaaleykum assalom.

- Hozir darsimiz nima?

- Texnologiya

- Shiorimiz?

Dil ba yoru, dast ba kor.

O‘qituvchi: Bugun kim navbatchi,

Ham ustozga ko‘makchi.

Navbatchi: Sinfda men navbatchi,

Darsga tayyor barcha o‘quvchi.

O‘qituvchi: G‘olib bo‘lar bugun kim,

Javob bering turmang jim.

O‘quvchilar baravariga – biz!!!

O‘qituvchi: Barakalla!!! Demak a‘lo kayfiyatni hamroh qilgan holda darsimizni boshlaymiz.

Ehtiyoj (refleksiya)larni aniqlash. Videorolik namoyish etiladi.

O‘tgan mavzuni mustahkamlash: Uy ishini tekshirish va baholash.

4K nima degani?

Boshlang'ich sinflarda qo'llanishi boshlanayotgan yangi tamoyil haqida.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

Yangi mavzu bayoni:

"Zardo'zlik san'ati" mavzusida nazariy darsda no'an'anaviy texnologiya elementlaridan, jumladan, Klasterlarga ajratish usulidan foydalanish mumkin (sxema).

—Klasterl metodl. —Klasterl (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchilar bilan yakka tartibda, gurux asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

- nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qogozga yozing! Fikringizning sifati haqida o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!

- yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jixatlariga e'tibor bermang!

- belgilangan vaqt nixoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang!

- agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qogozga biror narsaning rasmini chiza boshlang!

- bu harakatni yangi goya tug'ilguniga qadar davom ettiring!

- muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi goyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'likni ko'rsatish.

Bu metod yordamida o'quvchilar topshiriq bo'yicha fikrlarlni klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) Doska yoki qogozning o'rtasiga "kalit so'z" yoziladi. Bizning darsimiz mavzusidan kelib chiqib yozadigan bo'lsak, "Zardo'zlik san'ati" so'zini yozamiz.

- 2) O'qituvchi o'quvchilardan shu tushunchaga bogliq qanday fikr bo'lsa aytishlarini so'raydi va aytilgan fikrlarni kalit so'z atrofiga yoza boshlaydi. Bunda zardo'zlikda ish uslublari, zardo'zlikda naqsh turlari, ular haqidagi ayrim tushunchalar aytiladi va doskaga yoziladi.

- 3) Bu yozish jarayoni ajratilgan vaqt tugaguncha yoki hamma fikrlar aytib bo'lguncha davom ettiriladi.

- 4) Yozilgan barcha fikrlarni sxematik usulda "Zardo'zlik san'ati" so'zi bilan boglaymiz. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazar ekan, ularning zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va zar bilan tikishdagi naqsh turlarini bajarish ko'nikmalarini qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlaydiki shunga qarab o'quvchilarning ko'rsatilayotgan ish usullarini yaxshiroq tushunib olishlarini ta'minlashga erishiladi.

Zardo'zlik san'atiga oid tushunchalarni —Klaster usulil asosida tushuntirishga oid tuzilmaviy sxema

“QIZIL QUTI” METODI

Darsning oxirida “Qizil quti” metodi haqida eslatiladi. Bu quti o‘qituvchi xonasida turadi.

"Qizil quti" metodi (emotsional metod). Bu shunchaki o‘ziz uchun foydali bo‘lgan metod. Barchamiz ijobiy va salbiy hissiy holatlarni boshdan kechirganmiz. Jahlimiz chiqqan, xursand bo‘lganmiz yoki asabiylashganmiz. Maktab o‘quvchilarida ham shunday hissiy lahzalar ko‘p uchraydi. Shunday ekan, bugungi "Qizil quti" metodi sizga juda foydali bo‘ladi.

Bolalarga har kuni o‘zlarini baxtli his qilgan bir lahzani aks ettiruvchi stikerlardan birini qutiga solishlarini taklif qilinadi.

Masalan, men qiyin masalani yecha oldim, do‘stim bilan maroqli vaqt o‘tkazdim, tushlik menga yoqdi, chiroyli narsani ko‘rdim va hokazo.

Har bir dars so‘ngida bolalar bilan qizil qutiga solingan barcha stikerlarni olib o‘qiladi.

Bolalar bunday texnikani yaxshi ko‘rib qolishadi. Chunki, bu - ularga ko‘plab ijobiy lahzalar va go‘zal his-tuygular borligini ko‘rsatishga, his etishga imkon beradi.

Uyga vazifa:

—Bilaman|| —Bilishni istayman||, ||Bilib oldim|| mavzulari asosida fikrnoma yozadilar.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganimizda, Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishishi uchun talim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ananaviy o‘qitish vositalari va axborot texnologiyalaridan kompleks foydalangan holda badiiy hunarmandchilikni o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqish zarurati tugiladi.

Shunday ekan umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinf texnologiya o'quv fani orqali xalq hunarmandchiligini o'rgatish nafaqat tor milliy maqsadlar bilan belgilanadi balki, uning keng targiboti, uning rivojlanishining keyingi yollarini belgilab beradi hamda yoshlarning kasb-hunar egasi bo'lishiga yordam beradi.

Chunki xalqimizning asrlar davomida to'planib kelingan amaliy tajribalari negizida yuzaga kelgan xalq hunarmandchiligi turlari, shakllari va mintaqaviy hususiyatlari bilan xilma xildir. Shu jumladan, zardo'zlik ham xalq hunarmandchiligi bezak turi sifatida amaliy san'atning zar-tilla kumush suvi yuritilgan ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratiladigan sohasidir.

Mustaqillikdan keyin respublikamizda milliy qadriyatlarimizning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochilib, hozirgi kunda qadimiy shaharlarimizdan bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xiva hamda Qo'qon shaharlarida zardo'zlik san'ati keng rivojlandi.

Zardo'zlik badiiy hunarmandchilik turi sifatida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan. Arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida zardo'zlik, kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 1890 -1900 yillarda bajarilgan zardo'zlik ishlari zargarona o'ta nozikligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Turli ko'rinishdagi bo'rtma girixlar, yulduzchalar va shunga o'xshagan boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turadi. Ayniqsa davqur mujassamoti alohida o'rin tutadi. XX asrning 20–yillarida barcha amaliy san'at ustalari qatori zardo'zlar artellarga birlashtirildi va zarur xomashyo bilan ta'minlanib turildi. Keyinchalik artellar birlashtirilib fabrikalarga aylantirildi.

Zardo'zlikda to'rtburchak chambarakka –korcho'pga o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa materiallarga zardo'zi usulida kashta tikiladi. Kashtalarda ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi. Matoga mustahkamlangan taxta qog'oz zar ip bilan bir tomonlama qoplab tikiladi. Zardo'zlar bezak yaratishda bir necha usullarni qo'llaydilar: zardo'zi - zamindo'zi hamda zardo'zi – guldo'zi, ipak ishlatilganda esa birishimdo'zi, tugmasimon metall yaproqchalar qo'llanilganda po'lkado'zi va h. k. Mustahkamlovchi va tahrir choklarning bir necha xilining

moxirona qo'llanilishi hamda ularning naqsh mujassamoti xomashyo, uning tikilishi hamda zardo'z ustaning did va mahoratiga bog'liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an'anaviy o'simliksimon naqshlar, xandasaviy shakllar (davqur, darxon, donacha, bodommoy) va boshqalardan foydalaniladi.

Zardo'zlik ishlarini onaxon-u momolarimiz qo'l mehnati bilan bajarib (tikib) kelishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib kelinlik sarpolari, zar, to'n, do'ppilar zamonaviy texnika, texnologiyalardan foydalanib tikilib, bu sohada yangiliklar, katta o'zgarishlar qiilnmoqda. Zamonaviy texnologiyalar hozirgi kundagi zardo'z ayollarimizga foydasi tegibgina qolmay, bu ularning qo'l mehnatini bir necha barobarga yengillatdi va yangidan – yangi gullarning tabiiy, yanada jilvakor bo'lishiga erishilmoqda. Zardo'zlarimiz bugungi kunda chet elning —Zingerl, —Yamatal kabi tikuv mashinalaridan foydalangan xolda o'z ishlarini yengillatib, faoliyat samaradorligini oshirishmoqda.

Xalq hunarmandchiligini o'rgatish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish vositasi sifatida o'rgatib, ular bolaning ijtimoiy va manaviy rivojlanishida muhim o'rin tutishiga erishish mumkin. Shunda o'quvchilarning dunyoqarashi va ona vataniga, boshqa millat va elatlarga bo'lgan munosabatining ajralmas qismi sifatida qarashga harakat qilishadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinf o'quvchilariga Texnologiya fanidan —Servis xizmatil yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan dars mashg'ulotlarida zardo'zlik ishlariga oid ma'lumotlardan foydalanish va zardo'zlikka oid amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Xususan, o'quvchilarga zardo'zlik ishlarini bajarish texnologiyasining dastlabki jarayonlari, rivojlanish tarixi, usullari, zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalarining turlari haqidagi ma'lumotni berish mumkin.

Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarga zardo'zlik san'atini keng va to'liq tushuntirib, ularga batafsil ma'lumotlar berish hamda amaliyotda namoyish etish bilan birga uning yo'nalishlari vazifalarini kengaytirish, bugungi olib borilayotgan uzluksiz

ta'lim tizimida keyingi bosqichlarda ham xalq hunarmandchiligini boshqa usullarini davom ettira olish ko'nikmasini hosil qilishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan DTS va o'quv dasturi. Toshkent. 2017 yil
2. Jabborova I. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O'qituvchi 1968 y.
3. Jabbarova D.I. Zardo'zlik texnologiyasi. Toshkent. «O'qituvchi», 2002.
4. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi metodikasi va kasb tanlashga yo'llash. Toshkent. Sharq. 2014
5. Yusufxo'jaeva F. Mehnat ta'limi darslarida zardo'zlik ishlarini tashkil etish. // Xalq ta'limi jurnali. 2010 yil 4-son B.99-102
6. Sharipov Sh. Qo'ysinov O., Abdullaeva Q. Texnologiya. 6-sinf darsligi. Toshkent. Sharq. 2017 y.
7. Tolipov O.Q, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari Fan. Toshkent 2006
8. Mamajonova, K., & Xolmatov, P. (2020). Kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashg'ulotlar shakllari va mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.